

RALPH WALDO EMERSON VA IS'HOQXON TO'RA IBRAT ASARLARINING G'OYAVIY-ESTETIK TAMOYILLAR TAHLILI (SELF-RELIANCE VA RISOLAI IBRAT ASARLARI MISOLIDA)

Ilyasova Nadira Dosmurat qizi

UzDJTU xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15798677>

Annotatsiya: Ushbu maqola amerikalik faylasuf va adib Ralph Waldo Emerson hamda jadidchilik harakatining namoyondalaridan biri, o'zbek mutafakkiri Is'hoqxon To'ra Ibratning g'oyaviy-estetik qarashlarini solishtirma tahlil qilishga bag'ishlanadi. Tahlil uchun asosiy manbalar — Emersonning mashhur Self-Reliance esse-si va Ibratning didaktik-ma'rifiy asari Risolai Ibrat tanlangan. Inson tafakkurining taraqqiyotida falsafa va adabiyot muhim o'rin egallaydi.

G'oyaviy-estetik qarashlar har bir davr adabiyotining asosiy yo'nalishlarini belgilab kelgan. XIX asr Amerika va Markaziy Osiyo fikr tarixi ham ana shunday falsafiy-estetik yuksalishlarga boy bo'lgan. Ralph Waldo Emerson va Is'hoqxon to'ra Ibrat ikki turli geografik va madaniy makonda yashagan bo'lsalar-da, ular o'z asarlarida insonning o'ziga ishonchi, ma'naviyat, mustaqillik, taraqqiyot va o'zligini anglash g'oyalarini ilgari surgan. Ushbu maqolada Emersonning mashhur "Self-Reliance" asari va Ibratning "Risolai Ibrat" asarida ifoda etilgan g'oyaviy-estetik tamoyillar tahlil qilinadi, ularning o'xshash va farqli jihatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlari: G'oyaviy-estetik tamoyil, individ, ma'rifiy realism,

Emerson XIX asr Amerikaning Transsensualist harakati yetakchisi, uning falsafasi "individ" va "o'zlik" g'oyasi asosida shakllangan. Ibrat esa jadidchilik harakati orqali musulmon Sharq jamiyatining uyg'onishini, yangilanishini targ'ib qilgan. U har doim ilm, ma'rifat va madaniyatning kuchiga ishonadi. Har ikki mutafakkir o'z davrining ijtimoiy-madaniy muammolariga javob izlagan. Ralph Waldo Emerson va Is'hoqxon To'ra Ibrat asarlarda asosiy g'oyaviy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. O'zlikka tayanish va mustaqillik (Self-Reliance)

Emerson: "He who would be a man must be a nonconformist." ("Kim chinakam odam bo'lishni istasa, u jamiyatga moslashmasligi kerak.") Bu fikrlar orqali Emerson insonni ichki haqiqatga tayanishga, ommadan farqli fikr yuritishga undaydi.

2. O'z-o'zini isloh qilish va ma'naviy kamolot (Risolai Ibrat)

Ibrat: "Inson ilm bilan yuksaladi. Ilmsiz kishi qorong'ulikda qoladi." U bilim olishni nafaqat dunyoviy yuksalish, balki ma'naviy yetuklik uchun zarur deb biladi.

3. Shaxs va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik

Emerson shaxs erkinligini jamiyat taraqqiyoti garovi deb biladi. Ibrat esa shaxsning o'zini isloh qilishi orqali jamiyat isloh bo'lishiga ishonadi.

Har ikkala marifatparvar mutaffakirlarning estetik yondashuvlari quyidagicha izohlanadi yani shakl va uslub jihatdan:

1. Til va obrazlar

Emerson she'riy, aforizmga boy, falsafiy tasvirlardan foydalansa, Ibrat aniq, didaktik, o'quvchi ongiga ta'sir qiluvchi nasriy tilni qo'llaydi. Ibratda Qur'oni karimdan iqtiboslar, tarixiy misollar ko'p uchraydi; Emersonda esa tabiat va ruhiy hurlik ramz sifatida ishlatiladi.

2. Murakkablik va soddalik

Emersonning falsafasi murakkab, kontseptual tafakkurni talab qiladi. Ibrat esa xalqqa tushunarli, sodd va samarali yo'llar bilan ma'rifatni yoyishga harakat qiladi.

Emerson va Ibrat bir-biridan uzoq ijtimoiy-madaniy muhitda yashagan bo'lsalar-da, ularning asarlarida inson sha'ni, ma'naviy mustaqillik, fikriy erkinlik va o'zlikni anglash kabi g'oyalar uyg'unlashadi. Emerson falsafasi ruhiy ozodlikni targ'ib qilsa, Ibrat bu ozodlikni ma'rifat va axloq orqali amalga oshirishni taklif qiladi G'oyaviy estetik tamoyillarning o'xshash va farqli jihatlarini quyidagi jadval orqali Emerson va Ibratning tamoyillari o'zaro solishtiriladi.

Adib	Emerson	Ibrat
Asosiy g'oya	O'zlikka tayanish	Ilm va o'z-o'zini tarbiya
Falsafiy ildiz	Transsendentalizm	Islomiy ma'rifatparvarlik
Uslub	Simvolik, aforistik	Didaktik, tarixiy misollar
Estetik yo'nalish	Estetik individualizm	Ma'rifiy realizm

Ralph Waldo Emerson va Is'hoqxon To'ra Ibrat ijodini solishtirma asosda tahlil qilish — Sharq va G'arb tafakkuridagi o'ziga xosliklarni, uyg'unlik va tafovutlarni aniqlashga xizmat qiladi. Emersonning transsendentalistik falsafasi va Ibratning jadidchilik ruhidagi asarlari, ayniqsa Self-Reliance va Risolai Ibrat, inson tafakkurining yuksak bosqichlarini aks ettiradi. Har ikki mutafakkir o'z davrining ijtimoiy-siyosiy muammolariga befarq bo'lmagan, insoniyatni ma'naviy uyg'unlashga da'vat qilgan ijodkordir.

Emerson uchun asosiy g'oya — insonning ichki "Men"ini anglash, o'z-o'ziga ishonch, shaxsiy erkinlik va ma'naviy mustaqillikka erishishdir. Uning fikricha, inson tabiat bilan uyg'un holda yashashi, jamiyat ta'siridan ozod bo'lishi va o'z fikri bilan yashashi kerak. Bu g'oya Self-Reliance asarida aniq ifodalangan bo'lib, muallif insonni o'z ichki ovozigacha quloq solishga undaydi. Emersonning estetik qarashlari ham shu g'oyalarga uyg'un: u san'atni, adabiyotni, tabiatni ilohiy haqiqatga eltuvchi vosita deb biladi.

Is'hoqxon To'ra Ibrat esa, jadidchilik harakatining faol namoyandasi sifatida, xalqni ilmga, ma'rifatga, zamonaviy tafakkurga yetaklashga intilgan. Risolai Ibrat asarida u ilm olishning fazilatlarini, dunyoqarashni kengaytirish zarurati va xalqning orqada qolish sabablari haqida ochiq fikr bildiradi. U diniy-ma'rifiy tamoyillar bilan milliy uyg'unlash g'oyalarini uyg'unlashtirgan. Estetik nuqtayi nazardan qaraganda, Ibrat o'z asarlarida soddalik, ravonlik va didaktikani ustuvor qo'ygan. Uning adabiy uslubi xalqchil, tushunarli va ibratli bo'lishi bilan ajralib turadi. Har ikki mutafakkirning asarlarida inson shaxsiga bo'lgan hurmat, fikriy mustaqillik, axloqiy poklik, ma'rifatga intilish kabi umumiy g'oyaviy tamoyillar mavjud. Emerson bu g'oyalarni falsafiy-psixologik jihatdan asoslagan bo'lsa, Ibrat ularni ijtimoiy-amaliy va diniy-ma'rifiy kontekstda ilgari suradi. Estetik jihatdan esa, Emersonning tili falsafiy va poetik bo'lsa, Ibratning tili xalqchil va o'qituvchi uslubiga yaqin. Ushbu tadqiqot Emerson va Ibrat asarlari o'rtasida bevosita aloqadorlikni isbotlashga emas, balki ularning g'oyaviy-

estetik qarashlaridagi mushtaraklik va madaniy kontekstdagi tafovutlarni aniqlashga qaratildi. Emersonning transsendentalistik fikrlari G'arbda shaxsiy erkinlik va mustaqillik tamoyillarini targ'ib qilgan bo'lsa, Ibrat Sharqdagi milliy-ma'naviy uyg'onish harakatining yetakchi ovozlari biri bo'lgan.

Yakuniy xulosaga ko'ra, Ralph Waldo Emerson va Is'hoqxon To'ra Ibratning g'oyaviy-estetik qarashlari har xil sivilizatsiyaviy asoslarda shakllangan bo'lsa-da, ularning asosiy intilishi — insonni uyg'otish, unga ishonch berish, erkin fikrlashga chorlash va jamiyatni yuksaltirish g'oyalarida mushtaraklik mavjud. Bu esa ularni ikki mutafakkir sifatida yagona maqsad sari intilgan ma'naviy qardoshlar sifatida ko'rishga asos beradi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Emerson, Ralph Waldo. Self-Reliance and Other Essays. Dover Publications, 1993.
2. Is'hoqxon To'ra Ibrat. Risolai Ibrat.
3. Cavell, Stanley. Emerson's Transcendental Etudes. Stanford University Press, 2003.
4. Abdurauf Fitrat. O'zbek jadidchiligi tarixi.
5. Mahmudov A. Jadidchilik va milliy uyg'onish harakati. Toshkent: 2011.
6. Ahmadjonov M. Is'hoqxon To'ra Ibrat hayoti va ijodi, Andijon: 2003.